

"TARIXI ANBIYO VA HUKAMO" ASARIDAGI BA'ZI JIHATLAR

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti

3-bosqich talabasi Omonova Zilola

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, shoir-Alisher Navoiyning tarixnavislikka oid asari "Tarixi anbiyo va hukamo" haqida so'z boradi. Asardagi ko'zga tashlanarli ba'zi jihatlar aytib o'tiladi. Navoiyning bu asari payg'ambarlar va hakimlar tarixi to'g'risida qimmatli manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Odam Ato, Qobil va Hobil, Shis a.s., laqab, kuniyat, "Zafarnoma", "Tarixi Jafariy", Muso a.s., "Mabsut", vafot etmoq, Hom binni Nuh, Ibrohim a.s.

"Tarixi anbiyo va hukamo" Navoiyning tarixnavislikka oid asarlaridan biri hisoblanadi. Asar 1485-1486-yillarda yaratilgan bo'lib, payg'ambarlar va hakimlar tarixiga bag'ishlangan. Voqealar dastlabki inson va dastlabki payg'ambar Odam Atoning yaratilishi voqealari bilan boshlanadi. Odam a.s.ning laqabi Safiyullohdir. Bu haqida Navoiy "Lison ut-tayr" asarida ham e'tiborga olib o'tib ketadi. Ya'ni, Haqdan unga "Safiy" - "pok" degan laqab berildi. Odam Atoning kuniyati esa Bulbashardir, ya'ni insoniyatning boshi, boshlanishi, birinchisidir. Bundan tashqari yana ba'zi bir payg'ambarlarga laqab va kuniyatlar berildi. Bular: Nuh a.s.ning laqabi Baxiyulloh, Hud a.s.ning laqabi Baniyulloh, Muso a.s.ning laqabi Kalimulloh, Ibrohim a.s.ning laqabi Xalilulloh, kuniyati esa Abuz-Ziyfon va Abul-An-biyo va Abul-Muhammaddur.

Odam a.s.ning farzandlari Qobil va Hobil voqealari bayoni o'zga manbalarda ko'p uchraydi va hammaga tanish. Endi Navoiyning Qobil va Hobil voqealaridan biz e'tiborga oladigan jihatlaridan biri ularning qurbonlik qilish jarayoni. Shart shu ediki, ular qo'y o'ldirib, tog' ustiga qo'yishardi. Qaysi birining qo'yini osmondan o't tushib kuydirsa, o'shaniki qabul bo'lganligi joiz etiladi. Bunda Qobilning qurboni kuymadi. Shayton Qobilga: "o't sendan ranjibdi, shuning uchun qurboningni kuydirmadi. Agar o'tga sajda qilsang sendan xushnud bo'lar",- deydi. Shu tariqa Qobil o'tga sajda qildi va otashparastlik rasmi shundan bunyod bo'ldi. Va Qobil farzandlari va avlodlari otashparastlik bilan mashg'ul bo'ldilar.

Navoiy ushbu asarni yozish davomida qaysi manbalardan foydalanganligini ham aytib o'tadi. Odam a.s. vafot etganda Qobil va Hobildan keyingi farzandi Shis a.s. unga g'usl berib, namoz o'qib va Hindistonda dafn etgani. Xavo ham Odam a.s. yonida dafn qilingani haqida Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" sining muqaddimasida shu fikrlarni aytib o'tganini ta'kidlaydi. Shis a.s.ning o'g'li Anush birinchi xurmo daraxtini ekadi. Sadaqa rasmini ham birinchi u paydo qiladi. Navoiy Anush haqida yozganda "Tarixi Jafariy" dan misol keltiradi. "Tarixi Jafariy" da Anush haqida shunday

yozilgan edi: "Anush zamonida Suvod mulkida bir ajdaho paydo bo'lib, xaloyiqqa ko'p nuqsonlar yetkazdi. Anush borib, o'sha ajdahoni Odam a.s.ni jannatdan chiqargan aso bilan o'ldirdi. Va keyinchalik Muso a.s.ga tekkan ham shu asodir",- deydi Navoiy o'z asarida. "Tarixi Jafariy"- bu islom tarixchisi va islohiyotchisi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning asarlari, jumladan, "Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi" asarini nazarda tutadi.

Mavlono Mirxondning "Ravzat us-safo" asaridan ham Navoiy parcha keltiradi. Xantila binni Safvon Qahr binni Qahiton o'g'li haqida bayon qilish davomida "Ravzat us-safo"dan shunday misollar keltiradi:"Solih a.s. zikridan so'ngra Zulqarnayn Akbar qissasini bitib, shunday bayon qilibdi, aksar tarix ahli Nuh a.s.dan so'ngra va Ibrohim salavotur-rahmon alayxdan oldin Hud bilan Solih a.s.dan so'ngra o'zga payg'ambar bo'lmaydur".

Muso a.s. bayonotida Navoiy "Al-Mabsut" dan ham yozib o'tadi. Bunda Shu'ayb a.s. Muso a.s.ga Safura ismlik qizini atagani va shu sharti bilan, sakkiz yil Muso a.s. Shu'ayb a.s.ning kutgan mi'od (muddat, payt) o'tgach, Muso a.s.ni uylantirib, biror nima molidan berib, 10 yildan so'ngra Misrga jo'natganini yozadi. "Va aso bobida so'z ko'pdur. Mabsut kutubdan bilsa bo'lur",- deydi Navoiy. Shu o'rinda "Al-Mabsut" haqida ma'lumot keltirsak. "Al-Mabsut" 9-asrga mansub bo'lgan, Xanafiy mazhabining huquqiy asosi hisoblangan klassik matndir.

Navoiy so'z qo'llash mahorati bilan ham yuqori darajada turadi. "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida ham buni guvohi bo'lamiz. Vafot etmoq so'zini faqat vafot etdi deb ketavermasdan deyarli hammasida yangicha yondashadi: dorulfanodan gulshani baqoga xirom qildi, Tangri taolo rahmatiga bordi, hayot vadi'atin arvoq qobizig'a topshirdi, olamg'a vido etti, vafot qildi, ajal yetdi, oxirat safarig'a ozim bo'ldi, maloika uni osmong'a raf' qildilar, Tangri taolo hukmin butkardi, oxirat olamig'a yuzlandi, qazo etti, olami foniya vido' qildi, o'ldi va hokazo kabilar.

Bilamizki, Odam a.s. yaratilib dastlab bihishtda yashaydilar, keyinchalik ta'qiqlangan narsani shayton vasvasasiga aldanib yeb qo'yishi natijasida jannatdan yerga tushiriladilar. Bundan oldin Odam a.s.ni Alloh oldida martabalari yuksak edi, shu voqeadan so'ng yuzlari Alloh oldida qaro bo'lib, Hindistonga tushiriladilar. Yuz qarolikda Hindistonga yuborilishi bo'yicha Nuh a.s. bayonotida ham keltiriladi. Voqea shunday edi: Nuh a.s. uxlab yotganlarida avratlari ochilib qoldi. Buni ko'rgan o'g'li Hom kuldi. Som va Yofas esa ma'n qilib, yoptilar. Nuh a.s. uyg'onib bu voqea ma'lum bo'ldi. Nuh a.s. o'g'li Homni yomon duo qildi. Shu jihatdin Homning rangi qaro bo'ldi. To'fondan so'ng Nuh a.s. o'g'illariga yerlarni ajratib berayotganda Homga Hindistonni berdi. Odam a.s. ham Hom binni Nuh ham yuz qarolik bo'lganda Hindistonga yuborildilar. Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish lozim. Nuh a.s. o'g'lini duo qilib, o'g'lini yuzi qaro bo'ldi va Homning naslidan payg'ambarlik to'xtadi, uzildi. Ibrohim a.s.ning ikki o'g'li bor edi: Ismoil, Ishoq. Ibrohim a.s.ga Jabroil bashorat berdi, ming

payg'ambar Ishoq naslidan vujudga kelgay. Shunda Ibrohim a.s. Allohga munojot qilib, duo qildi. Va xitob keldikim, oxiruzzamon payg'ambari sallollohu alayhi vasallam Ismoil a.s. naslidan bo'lgusidir. Ota duosi shu darajada ekanki, siz bir duo orqali yuksak maqomli yoki yuz qaro bo'la olasiz.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning bu asari nafaqat payg'ambarlar va hakimlar tarixi balki, pand-nasihat, odob-axloq haqidagi asardir. Eng asosiysi, bu asar orqali inson Allohga bo'lgan muhabbatni, unga bo'lgan ishonchni, uning buyukligini va u har narsaga qodirligini yana bir bor tushunib yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo
2. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik.
8-jild.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2001y.